

3/2024,
may-
iyun
(№ 00071)



MINTAQALARDA SANOAT TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHISH IMKONIYATLARI

SH.SH.Fayziyeva

i.f.n., professor vazifasini bajaruvchi, Qarshi muhandislik - iqtisodiyot instituti

E-mail: fayziyevashirin66@gmail.com UDK: 334.716

ORCID: <https://orcid/0000-0001-5643-9934>

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss3/i11

Annotatsiya

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida iqtisodiyotning agrar va sanoat tarmoqlari o'rnini xizmat ko'rsatish sohalari egallayotgan davrda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida sanoatning jozibadorligi ortib bormoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat majmuasi moddiy ishlab chiqarishning asosiy bo'g'ini sifatida ularni kelgusi taraqqiyot bosqichiga olib chiquvchi yetakchilik vazifasini bajaradi. Bugungi kunda sanoat majmuasi tarmoqlari mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. В данной статье освещена роль промышленного комплекса Кашкадарьинской области в экономике региона, а также обоснованы направления развития производственной сети в перспективе. Представлены вопросы, поднятые в работах экономистов, и объемы производства промышленной продукции в регионах. В статье также используются методы научной абстракции, анализа и синтеза, индукции и дедукции.

Kalit so'zlar: sanoat majmuasi, samaradorlik indeksi, aholi jon boshiga sanoat mahsuloti hajmi, sanoat tarmog'ida band aholi, milliy mahsulot.

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННОЙ СФЕРЫ В РЕГИОНАХ

Ш.Ш. Файзијева

к.э.н., и.о. профессора, Каршинский инженерно-экономический институт

Аннотация

В развитых странах мира привлекательность промышленности в экономиках развивающихся стран возрастает в тот период, когда на смену аграрному и промышленному секторам экономики приходят сферы услуг. В условиях модернизации экономики промышленный комплекс как основное звено материального производства выступает лидером, выводя его на новый этап развития. Сегодня отрасли промышленного комплекса приобретают актуальное значение в социально-экономическом развитии страны и обеспечении макроэкономической стабильности. В данной статье освещена роль промышленного комплекса Кашкадарьинской области в экономике региона, а также обоснованы направления развития производственной сети в перспективе. Представлены вопросы, поднятые в работах экономистов, и объемы производства промышленной продукции в регионах. В статье также используются методы научной абстракции, анализа и синтеза, индукции и дедукции.

Ключевые слова: промышленный комплекс, индекс эффективности, объем промышленного производства на душу населения, занятое в промышленности население, национальный продукт.

OPPORTUNITIES FOR INDUSTRIAL DEVELOPMENT IN THE REGIONS

Sh.Sh. Fayzieva

c.e.s., acting Professor, Karshi Engineering and Economic Institute

Abstract

In developed countries of the world, the attractiveness of industry in the economies of developing countries increases at a time when the agricultural and industrial sectors of the economy are replaced by service sectors. In the conditions of economic modernization, the industrial complex, as the main link in material production, acts as a leader, bringing it to a new stage of development. Today, branches of the industrial complex are acquiring current importance in the socio-economic development of the country and ensuring macroeconomic stability. This article highlights the role of the industrial complex of the Kashkadarya region in the regional economy, and also substantiates the directions for the development of the production network in the future. The issues raised in the works of economists and the volumes of industrial production in the regions are presented. The article also uses methods of scientific abstraction, analysis and synthesis, induction and deduction.

Key words: industrial complex, efficiency index, volume of industrial production per capita, population employed in industry, national product.

Kirish

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning agrar va sanoat tarmoqlari o'rnini xizmat ko'rsatish sohalari egallayotgan davrda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida sanoatning jozibadorligi ortib bormoqda. Bunday mamlakatlarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat majmuasi moddiy ishlab chiqarishning asosiy bo'g'ini sifatida ularni kelgusi taraqqiyot bosqichiga olib chiquvchi yetakchilik vazifasini bajaradi. Shundan kelib chiqqan holda sanoat majmuasi tarmoqlari mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Dunyo bo'yicha ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlarining 45,8 foizi Xitoy, AQSH, Yaponiya va Germaniya mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. Jahonning 80 ta mamlakati yalpi ichki mahsulotida sanoatning ulushi 30,0 foizdan yuqori.

Mamlakat iqtisodiyoti va aholi bandligida sanoat juda katta o'rin tutadi. Bu sohaga zarur sharoit yaratish maqsadida so'nggi yillarda mamlakatimizda 19 ta erkin iqtisodiy zona va 400 dan ziyod kichik sanoat zonasi tashkil etildi, ularning infratuзилasiga 10 trillion so'm yo'naltirildi. Shuningdek, to'qimachilik, kimyo, qurilish materiallari, charm, farmatsevtika, elektr texnikasi kabi tarmoqlarni "drayver"ga aylantirish uchun 3 milliard dollarlik moliyaviy resurslar ajratildi. Sanoatni xomashyo bilan ta'minlash uchun geologiya-qidiruv ishlari 3 barobar ko'paytirilib, 600 tadan ziyod yangi kon aniqlandi. Natijada oxirgi besh yilda sanoat korxonalari soni 2 barobar ko'payib, 100 mingtaga yetdi, ishlab chiqarish hajmi esa 1,4 baravarga ko'paydi.

O'zbekiston iqtisodiyotida YAIM tarkibiga tarmoqlarning qo'shilgan qiymatida (YAQQ) sanoat tarmog'ining ulushi 2010 yilda 24,1 foizni tashkil etgan, bu ko'rsatkichda 2018 yildan boshlab 30,0 foizdan yuqori qiymatni tashkil etishga erishildi. Bu esa mamlakatimizda sanoat tarmog'ining ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Shunday ekan, mamlakatimizda

sanoat salohiyatini mustahkamlash va mintaqalarni kompleks rivojlantirish, yangi ishlab chiqarish loyihalarini yo'lga qo'yish orqali hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli farmonida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy ishlab chiqarishni ko'paytirish [1] va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 apreldagi “2022-2026 yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 201-son qarorida [2] viloyat hududida sanoat zonalarini tashkil etish, mahalliy xom-ashyodan samarali foydalanish va qayta ishlash orqali sanoat tarmog'ini rivojlantirish imkoniyatlaridan kengroq foydalanish amalga oshirilishga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida [3] tahlillar orqali keltirilgan raqamlar bo'yicha qo'yilgan vazifalar o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Mavjud resurslar esa sanoat tarmoqlari rivojlanishining asosiy manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada mintaqalarda sanoat tarmog'ining rivojlanishi hamda eksport salohiyatining oshishiga imkoniyatlar kengaymoqda.

Sanoat sohasini rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o'rnining nihoyat darajada zarurligi bilan doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Ushbu masala mavzu yuzasidan xorijlik olimlardan Y.Rodionov, R.S.Porter, D. Deveryuks, B.Roberts, R.N. Nureyevlar ilmiy yangiliklar yaratgan bo'lsalar, mahalliy olimlardan Y.A.Abdullayev, A.Abduhamidov, U.Muxitdinov, A.A.Ortiqov, X.Ishbutayeva, Sh.Nizomova, E.X.Maxmudov, M.Isoqovlar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishga erishgan. Xususan, A.Artikov “O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari”ga [6], M.P.Narziqulov “Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e'tibor tarkibiy o'zgarishlarga qaratilganligi”ga [7], E.X. Maxmudov “Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo'nalishlari birinchi navbatda budjet, soliq, pul kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish”ga [8] bog'liqliklariga alohida to'xtalib o'tishgan.

Bizning fikrimizcha mintaqalarda sanoat tarmog'ini rivojlantirish har bir mintaqaning xususiyatidan kelib chiqqan holda mavjud imkoniyatlari iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, eksport salohiyatini ko'paytirish, milliy sanoat mahsulotlari turini takomillashtirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda mintaqalarda mehnatga layoqatli aholini ish o'rinlari bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratadi hamda yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat mahsulotining ulushi ortishiga erishiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan. Ushbu tadqiqot ma'lumotlari rasmiy manbalardan olinib, taniqli iqtisodchi olimlarning iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning roli bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish, xorij tajribalarini umumlashtirish va mamlakatimizda

erishilayotgan yutuqlar bo'yicha olingan natijalarga tayangan holda innovatsion tadbirkorlikni o'rganishga erishildi.

Tahlillar va natijalar

Sanoat tarmog'i milliy iqtisodiyotdagi ulushi jihatidan viloyatning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidan keyin turuvchi yuqori salohiyatli tarmoq bo'lib, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanmaslik natijasida bu tarmoqda o'sish kuzatilmayapti. So'nggi yillarda sanoat mahsuloti hajmi bo'yicha Qashqadaryo viloyatining O'zbekiston Respublikasi hududlari orasidagi o'rni tushib bormoqda. Bu ko'rsatkich bo'yicha viloyat 2010 yilda 3-o'rin, 2015 yilda 5-o'rin, 2020 va 2021 yillarda 8-o'rindan joy olgan. Sanoat tarmog'i tarkibi bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda respublika bo'yicha Qashqadaryo viloyatining ulushi 2010 yilda 68,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilda 49,0 foiz, 2020 yilga kelib, bu ko'rsatkich 4,7 foizga keskin tushib ketgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 apreldagi “2022-2026 yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 201-son qarorining qabul qilinishi sanoat sohasining yanada rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo'ldi.[2] Qashqadaryo viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning “o'sish nuqtalari”ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilashga qaratilgan vazifalar belgilandi. Jumladan, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilangan yangi tartib asosida viloyatning tuman va shaharlaridagi mavjud muammo va imkoniyatlar chuqur o'rganilgan holda hududlar kesimida muhim loyihalarni shakllantirilishi va mahalliy jamoatchilik ishtirokida keng muhokama qilinishi amalga oshirildi.

Qashqadaryo viloyatida 2022 - 2026 yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,5 baravar, sanoat mahsulotlari hajmini 1,5 baravarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,2 baravar, xizmatlar hajmini 2,9 baravar hamda qurilish ishlari hajmini 1,2 baravarga oshirishni nazarda tutuvchi shahar va tumanlar kesimidagi maqsadli ko'rsatkichlar parametrlarining belgilanishi mahalliy sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Qashqadaryo viloyatida juda katta salohiyatga ega bo'lgan sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga imkoniyatlar yaratilmoqda.

Jumladan, “Qashqadaryo magistral elektr tarmoqlari” filiali Qashqadaryo viloyatida yashovchi aholi, faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari, o'rta va kichik biznes ishlab chiqarish korxonalari, ijtimoiy soha obyektlari, umuman olganda, iqtisodiyot tarmoqlarining barcha sohalari hamda iste'molchilarini uzluksiz, sifatli elektr energiyasi bilan ta'minlashga xizmat qilmoqda. Qashqadaryo viloyati iste'molchilarining elektr ta'minoti yaxshilanishi uchun qo'shimcha quvvatlarni ishga tushirish, yuqori kuchlanishli elektr uzatish havo tarmoqlarini mukammal va joriy ta'mirlash, sanoat korxonalarining jadal rivojlanish jarayonida Qashqadaryo viloyatida elektr ta'minoti barqarorligini ta'minlash vazifalarining amalga oshirilishi sanoat tizimida samaradorlikka erishish imkoniyatlarini beradi.

Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va agrosanoat majmuiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar tarixan yetakchi mavqega ega. Bular paxta tozalash, shoyi to'qish, konserva, yog'-moy va boshqa sanoat turlaridir. Shu bilan birga kimyo va neft kimyosi, mashinasozlik, elektronika, energetika, metallurgiya, yengil va qurilish materiallari sanoati jadal sur'atlarda rivojlanmoqda.

1-jadval

Hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi, (amaldagi narxlarida; mlrd. so'm)

Hududlar	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	1 888,9	11 028,6	38 119,0	97 598,2	368 740,2	456 056,1	553 265,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	44,2	198,8	697,2	2 387,6	13 981,3	16 630,4	17 624,7
Andijon	155,7	1 177,5	4 701,4	9 744,6	36 376,5	35 935,3	54 352,5
Buxoro	126,1	517,0	1 674,8	5 143,9	17 574,4	20 772,1	27 202,4
Jizzax	20,5	192,6	522,7	1 474,5	5 823,8	8 731,8	11 402,0
Qashqadaryo	159,8	1 436,3	4 957,5	8 721,9	14 612,3	18 771,9	22 624,4
Navoiy	210,8	1 714,8	4 038,5	9 286,9	65 084,9	73 633,5	84 393,7
Namangan	67,8	330,5	1 007,0	2 861,8	11 011,9	14 695,1	18 120,5
Samarqand	97,8	383,6	2 011,2	6 095,5	18 383,4	22 834,3	29 188,6
Surxondaryo	43,1	219,1	756,4	1 910,7	5 322,7	6 675,3	7 229,8
Sirdaryo	62,1	296,6	926,8	2 820,6	7 990,9	9 813,3	12 011,2
Toshkent	310,4	1 795,4	5 471,2	14 401,0	65 949,9	83 433,9	93 935,1
Farg'ona	248,4	1 033,2	3 265,5	7 170,2	21 701,2	27 761,5	30 303,5
Xorazm	50,0	214,8	628,6	2 616,0	9 615,9	13 658,1	18 323,3
Toshkent sh.	292,2	1 247,4	6 984,4	18 986,1	66 188,0	90 211,9	108 807,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari

Yuqoridagi 1-jadvalda hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi keltirilgan bo'lib, 2000-2022 yillar bo'yicha ma'lumotlar bilan tanishamiz. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2022 yilda 2000 yilga nisbatan 551376,1 mlrd.so'mga yoki 192,9 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda sanoat mahsulotlarining ko'payishi bir vaqtning o'zida kapital migratsiyasining oshishiga ha ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, ushbu raqamlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz xom-ashyo yetishtiruvchi mamlakatdan tayyor mahsulot yetishtiruvchi mamlakatga aylanganligidan darak beradi.

Jadval ma'lumotlaridan aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining o'sish sur'atlari bilan tanishar ekanmiz, 2022 yilda 3,2 foizga o'sganligini ko'ramiz. Ushbu yilda eng yuqori ko'rsatkich Andijon viloyati hissasiga to'g'ri kelgan va 20,2 foizga o'sgan.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida barcha tarmoqlar bo'yicha salohiyat yuqori. Sanoat uchun zarur xom-ashyo resurslari, xizmat ko'rsatish uchun infratuzilma, qishloq xo'jaligi uchun yer-suv va tajribalarning yetarliligi imkoniyatlarning kattaligidan dalolat beradi. Shulardan kelib chiqib, to'qimachilik, qurilish materiallari, kimyo va oziq-ovqat sanoati, turizm, uzumchilik, bog'dorchilik va chorvachilik asosiy "o'sish nuqtalari" sifatida belgilab olingan. Viloyatda joriy yil uchun umumiy qiymati 11 trillion 300 milliard so'm bo'lgan 1 ming 125 ta hududiy loyiha shakllantirilgan. Xususan, sanoat sohasida 296 ta, xizmat ko'rsatishda 449 ta, qishloq xo'jaligi tarmog'ida 380 ta korxona tashkil etilishi rejalashtirilgan. Bunda iqtisodiy samaradorlik va bandlikka alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, kelajakda ushbu korxonalarda yiliga 6 trillion so'mlikdan ziyod mahsulot ishlab chiqarish

quvvati yaratiladi. Bu 131 million dollarlik import o'rnini bosish, 180 million dollarlik eksport qilish imkonini beradi hamda 19 mingdan ziyod kishi ish bilan ta'minlanadi.

2-jadval

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining o'sish sur'atlari, (o'tgan yilga nisbatan foizda)

Hududlar	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	99,9	102,6	103,0	103,5	98,9	106,6	103,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	95,6	120,0	103,4	119,6	101,1	106,0	99,1
Andijon	82,8	118,3	104,0	85,4	104,3	96,8	120,2
Buxoro	95,1	99,8	104,6	107,0	100,1	98,7	104,3
Jizzax	109,9	116,8	109,7	114,8	115,9	108,1	105,8
Qashqadaryo	99,4	99,4	92,2	100,4	101,0	113,2	107,8
Navoiy	98,8	93,6	96,5	99,4	107,3	105,0	104,0
Namangan	102,5	101,8	114,5	109,7	112,9	115,8	106,7
Samarqand	94,8	104,6	110,9	108,4	103,4	108,9	106,3
Surxondaryo	86,1	99,4	106,6	105,2	104,5	107,4	101,9
Sirdaryo	99,1	106,8	104,0	103,7	99,1	116,3	106,9
Toshkent	106,2	97,5	103,6	104,3	104,8	114,2	103,8
Farg'ona	101,7	101,6	91,4	102,2	102,3	106,5	102,4
Xorazm	100,6	119,1	104,1	123,9	104,4	115,5	113,0
Toshkent sh.	105,9	105,5	110,6	111,1	96,4	108,8	103,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari

Hozirgi kunda paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan 26 ta loyiha taklifi bildirilgan bo'lib, shundan 10 tasi tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi natijasida paxta xomashyosini viloyatning o'zida qayta ishlash darajasining oshishiga erishilib, ushbu tarmoqda 7 ming 600 dan ziyod ish o'zni tashkil etilishi kutilmoqda.

Aholining uy-joyga bo'lgan talabining oshishi, ijtimoiy obyektlar qurilishiga talabning yuqoriligidan kelib chiqqan holda Qashqadaryoda yiliga 106 ming tonna gipsokarton, 102 ming kvadrat metr kafel va boshqa qurilish materiallariga talab mavjud. Lekin kerakli xomashyo bo'lishiga qaramasdan, viloyatda ushbu mahsulotlar umuman ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilmaganligi muammo sifatida qaralib, qurilish materiallari sohasida bir nechta loyihalar rejalashtirilgan. Shuningdek, Chiroqchi tumanida 210 milliard so'mlik loyiha evaziga gipsokarton, pardobop toshlar, gazobeton, temir-beton konstruksiyalar ishlab chiqarish mo'ljallangan. Buning natijasida uy-joylar qurilishida 1 kvadrat metr tannarxini 25 foizgacha qisqartirish imkoniyati paydo bo'ladi. Chiroqchi tumanida kafel ishlab chiqarish, Shahrisabz shahrida granit va marmarni qayta ishlash bo'yicha loyihalar ham amalga oshirilmoqda.

Qashqadaryoning tog'li tumanlari meva-sabzavot, uzum, kartoshka, kovrak kabi bozorbop mahsulotlar yetishtirishga, dasht hududlar chorvachilikka ixtisoslashtirilgan. Jumladan, Nishon tumanida chorva kompleksi tashkil etib, sutni qayta ishlash bo'yicha 110 milliard so'mlik loyihaga kirishilgan. Bu majmuada 614 bosh naslli qoramol parvarishlanib, yiliga 5 ming 760 tonna sut mahsulotlari tayyorlanadi. Natijada 230 nafar qishloq aholisining ish bilan bandligi ta'minlanadi.

Shahrisabz tumanining tog'oldi qishloqlarida kartoshka va sabzavotlar yetishtirish loyihalari ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan muhim. Buning uchun aholiga yer ajratib berilib, mahsulotlar kooperatsiya asosida sotib olinadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu hududning o'zidan viloyatda kartoshkaga bo'lgan talabning 34 foizini ta'minlash imkoniyati mavjud hamda 6 ming 500 dan ziyod aholi bandligini ta'minlashga va daromad manbaini yaratishga erishish maqsad qilingan.

Qashqadaryo viloyatining “O'zbekneftgaz” AJ va uning tarkibidagi korxonalarning sanoat yarmarkasidagi ishtiroki sanoatning salohiyati, xomashyo resurslarini qayta ishlash holati va istiqbollari, ishlab chiqarish infratuzilmasi, chet el investorlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar, import nomenklaturasi, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha loyiha takliflari namoyish etilib, investitsiya loyihalari hamda tarmoq korxonalari ehtiyojlari uchun yetkazib beriladigan tovar va xizmatlarni mahalliyashtirish imkoniyatlari bo'yicha shartnomalarning tuzilishi, xoriydan taklif etilgan yuqori malakali mutaxassislar yordamida hamkorlarning safi va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar turini kengaytirish erishish, kelajakda xalqaro tajribani yurtimizga olib kelish va qo'llashni davom ettirib, ishlab chiqarilayotgan uskunalarning mahalliyashtirish darajasi va mahalliy mutaxassislarning malakasini oshirish keng imkoniyatlardan dalolat beradi.

Mintaqa sanoat tizimida charm-poyabzal sanoatining eng faol vakillaridan biri - belaruslik ishbilarmonlar bilan hamkorlikda 6 million dollar evaziga tashkil etilgan “UzShoes” qo'shma korxonasining yarmarkadagi ishtiroki uning mahsulotlariga qiziquvchilar sonining ortishiga, Germaniya, Italiya va Avstriyadan keltirilgan uskuna va jihozlar yordamida ishlab chiqarilgan poyabzallar nafaqat ko'plab mahalliy fuqarolar va sanoatchilar, balki yurtimizda faoliyat yuritayotgan xorijiy kompaniyalar, masalan, “LUKOYL Uzbekistan Opereyting Kompani” mas'uliyati cheklangan jamiyati vakillarini ham diqqat-e'tiborini tortishiga asos bo'ldi.

Ushbu yarmarkada o'z salohiyatini namoyish etayotgan sanoat korxonalarining ko'plab muvaffaqiyatlari bilan bir qatorda ayrim muammolari ham mavjud bo'lib, ularni hal qilish uchun ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalardan kengroq foydalanish zarur. Yarmarkada hududiy korxonalar ham o'z loyihalari taqdimotlari orqali iste'molchilarga yangi mahsulotlarini namoyish etish va ishlab chiqarish istiqbollari haqida ma'lumotlar berishga muvaffaq bo'lishdi. Xususan, Koson tumanidagi “Bunyodkor” mas'uliyati cheklangan jamiyati o'z ko'rgazmasida 2023 yil avgust oyi oxirida mazkur paxta-to'qimachilik klasteriga qarashli yangi yog' zavodida ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan o'simlik yog'i bilan bir qatorda shu kunlarda ilk partiyasi eksportga jo'natilayotgan to'qima matoni ham namoyish etganligi korxonaning eksport bilan shug'ullanuvchi mutaxassisleri rossiyalik hamkorga sotilgan birinchi partiya - 70 ming pogonometr matoning hujjatlarini rasmiylashtirishga erishishdi. Bu esa viloyatda yana bitta istiqbolli loyiha amaliy samara keltira boshlaganidan darak beradi.

Xulosa va takliflar

Demak, xulosa o'rnida ta'kidlaydigan bo'lsak, hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasining o'tkazilishi iqtisodiyot tarmoqlari va hududiy korxonalarning sanoat salohiyatini yanada oshirish, ular o'rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish va mahalliyashtirishni kengaytirishga qaratilgan buyurtmalar portfelini shakllantirishga xizmat qiladi. Mintaqada sanoat tarmoqlarining tarkibiy o'zgarishlarini yanada kengaytirish maqsadida mulkdorlar sinfini ko'paytirish, sog'lom raqobat muhitini

shakllantirish, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar sonini ko'paytirish, ishlab chiqarishga innovatsiyalarni joriy etish, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, makroiqtisodiy barqarorlikning oshishiga, investitsiya muhitini shakllantirish, sanoat tarmoqlari sohalariga mos kadrlar tayyorlash salohiyatini oshirish hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini kengaytirish lozimligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 apreldagi “2022-2026 yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 201-son qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi 23 dekabr 2017 y. № 258 (6952).
4. Shodmonovna F. S. RESULTS AND PROSPECTS FOR INDUSTRIAL DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. 2023. – T. 3. №. 10. C. 40-45.
5. Yuldosheva Sh. A. SANOAT KORXONALARI SAMARALILIGINI OSHIRISH BO'YICHA ISHLAB CHIQARISH YO'NALISHLARI //Экономика и социум. – 2023. №. 11 (114)-1.– С. 1168-1172.
6. A.Ortikov. Sanoat iqtisodi. Darslik. T.: TDIU, 2009. 236 b.
7. Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы IV-го Форума экономистов / отв. ред. М.П. Нарзикулов. Ташкент. Vak1paRgez\$, 2012. С. 8.
8. E.X. Maxmudov, A. Ortikov, F. Karimov. Korxona iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini. / Hamkor. 2010 yil 7 fevral.
9. www.stat.uz.